

Darslikda berilgan bo`g`in va so`zlar o`quvchilarga navbat bilan o`qitiladi.

Joy nomlarini yozilishi Chimyon, Chirchiq, Chortoq kabi so`zlarni yozilishi orqali tushuntirish tavsiya beriladi.


Rasm asosida tog` tabiatи, havosi haqida suhbatlashadi.

“Chimyon tog`i” matni o`qitiladi.

Dam o-lish ku-ni o-i-la-miz bi-lan bir-ga Chimyon to-g`i-ga chiq-dik. U yer-da qor ko`p e-di. A-kam chan-g`i-da, men cha-na-da ma-za qi-lib uch-dik. Tog` ha-vo-si bar-cha-miz-ga yoq-di.

### **Daftар bilan ishlash: (10 daqiqa)**

1. *Ch harf birikmasini tegishli rangga bo`yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.*
  2. *Cho`rtan rasmini bo`yang. Cho`rtan so`zining chizmasidan [ch] tovushining o`rnini aniqlang va tegishli katakni bo`yang.*
  3. *Berilgan namunadan bosma Ch, ch harf birikmasining bosh va kichik ko`rinishini avval nuqtalar ustidan so`ng mustaqil yozing.*
  4. *So`zlarni avval nuqtalar yordamida, so`ng mustaqil yozing.*
  5. *Bo`shtoq qiling.*
- Olcha, ko`cha, kulcha, bog`cha, chala, chana, chaman, charos.



### **Darsga yakun yasash:**

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?
- Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
- Bugungi darsda sizga nima yangilik bo`ldi?
- Qaysi topshiriqni bajarishga qiyonaldingiz?

### **54-mavzu: [ch] tovushi. Ch ch harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar**

#### **Dars maqsadi:**

- [ch] tovushining talaffuzi va Ch ch harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so`zlardan [ch] tovushining o`rnini aniqlashni o`rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch so‘zlar:** hayvon bolalarini nomlanishi, [ch] tovushi ishtirokidagi so‘zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

**Didaktik materiallar:** rasmlı va bo‘g‘inli kartochkalar, kesma harflar , uy hayvoni bolalari bilan rasmi

### Darsning borishi:

#### I.Kirish qismi (5 daqiqa)

#### Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O‘quvchilardan bugungi kun sanasi so‘raladi.

Bo‘g‘inlarni yozamiz mashqi: O‘qituvchi bo‘g‘inlarni aytishini o‘quvchilar esa ularni kesma harflari yordamida tuzishlarini so‘raydi.

#### Asosiy qism (40 daqiqa)

##### 1.Amaliy topshiriq bajarish: (10 daqiqa)

**Darslikda berilgan rasm asosida so‘z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.**

Rasmdagi bog‘liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so‘zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.  
chinor- 2 bo‘g‘in , 1- bo‘g‘in -chi, 2-bog‘in -nor,  
chizmada



##### Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa)

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

O‘xhash bo‘g‘inli so‘zlarni o‘qilishi va so‘zlar ma’nolari tushuntiriladi.

choy, choy-nak

Chumchuq haqidagi she’r o‘qitiladi.

Ga-la bo‘-lib ke-lib-san,  
Me-va-lar-ni cho‘-qib-san.  
Cho‘-qi-ma-gin sen hoy-hoy,  
Chum-chuq, chum-chuq-voy.

Rasm asosida suhbat o‘tkaziladi. Unda hayvon bolalarini nomlanishini tushuntirish tavsiya etiladi.

“Uy hayvonlari” matni o‘qitiladi.


##### Uy hayvonlari

Uy hay-von-la-ri bo-la-la-ri o‘z no-mi-ga e-ga. Mu-shuk bo-la-si mu-shuk-cha, it-ni-ki ku-chuk-cha, ot bo-la-si toy-choq, qo‘y bo-lasi qo‘zi-choq, ech-ki bo-la-si u-loq-cha, tu-ya bo-lasi bo‘ta-loq, si-gir bo-la-si bu-zoq-cha deb a-ta-la-di. Siz ya-na qay-si hay-von bo-la-la-ri nom-la-ri-ni bi-la-siz?

The page contains the following text:  
[ch] tovushi, Ch-ch harflar birikmasi  
Rasmga qerang. Ch harflar birikmasi qalmashgan so‘zlarni topib, ulariga mos chizma chizing.  
Ga-la bo‘-lib ke-lib-san,  
Me-va-lar-ni cho‘-qib-san.  
Cho‘-qi-ma-gin sen hoy-hoy,  
Chum-chuq, chum-chuq-voy.  
Uy hayvonlari  
Uy hay-von-la-ri bo-la-la-ri o‘z no-mi-ga e-ga. Mu-shuk bo-la-si mu-shuk-cha, it-ni-ki ku-chuk-cha, ot bo-la-si toy-choq, qo‘y bo-la-si qo‘zi-choq, ech-ki bo-la-si u-loq-cha, tu-ya bo-lasi bo‘ta-loq, si-gir bo-la-si bu-zoq-cha deb a-ta-la-di. Siz ya-na qay-si hay-von bo-la-la-ri nom-la-ri-ni bi-la-siz?  
Letters grid:  
o a  
i u  
o‘ e  
t n  
l m  
d k  
b y  
r q  
s z  
v p  
g g‘  
h sh  
f ch

O‘quvchilardan yana qanday hayvon nomlarini bilishi so‘raladi.

### Daftар bilan ishlash: (10 daqiqa)



1. Ch tovushi qatnashgan so‘zлarni belgilang.

2. Bo‘g‘inlar jadvalini yozing.

3. Rasmlarni bo‘yang. Ularning nomlarida qanday bo‘g‘in ishtirok etganini toping.

cha

cha

cha

chu

chu

chu

cho

cho

cho



Darsga yakun yasash:

Refleksiya mashqi o‘tkaziladi.

Bugungi darsni baholashda barmoqlardan foydalanamiz.



Mavzuni tushundim

Mavzu menga tushunarli bo‘lmadi.

**55-mavzu: [j] tovushi. Jjharfi**

**Dars maqsadi:**

- [j] tovushining talaffuzi va Jj harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [j] undosh tovush ekanligini bilib oladilar.
- so‘zlardan [j] harfining o‘rnini aniqlashni o‘rganadilar;
- so‘zni bo‘g‘inga bo‘lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;
- [j] tovushi ishtirok etgan so‘z va gaplarni o‘qishni o‘rganadilar.

**Tayanch so‘zlar:** [j] tovushi

**Didaktik materiallar:** rasmlli kartochkalar, “Oltin tojli xo‘roz” audio ertak

**Darsning borishi:**

### I.Kirish qismi (5 daqiqa)

**Faollashtirish mashqi:**

Kalendar : O‘quvchilardan bugungi kun sanasi so‘raladi.

Zanjir mashqi: O‘qituvchi q tovushi bilan boshlanadigan bitta so‘z aytadi.

O‘quvchilardan q tovushidan boshlanadigan so‘z aytishni so‘raydi. Mashq shu tariqa davom etadi.

*-Bugun siz bilan “Zanjir”mashqini o‘tkazamiz. Q tovushidan boshlanadi so‘z aytинг. Mashq shunday davom etadi.*